

Ushbu test varianti 30ta test topshirig'idan iborat.

Kitobda yopiq va ochiq turdagi test topshiriqlari mavjud.

Yopiq turdagi test topshiriqlarida berilgan to'rtta javobdan bitta javobni tanlash va javoblar varaqasida tanlangan javobga mos bo'lgan xarfni (A, B, C yoki D) topshiriq raqamiga mos qatorga yozish kerak.

Ochiq turdagi test topshiriqlarida javobingizni javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga to'liq va aniq tarzda yozish kerak.

1. Berilgan so'zlardan nechtasiga egalik qo'shimchasi qo'shilsa, tovush o'zgarishi bilan yoziladi?  
*bilak, ocherk, chek, yo'q, ravnaq, koptok, ishtirok, qaltiroq*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chiring.

2. Qaysi gapda imloviy xato mavjud?

- A) *Xalqimizga xos urf-odat va ananalar, avvalambor, mahalla muhitida shakllanadi.*  
B) *Manmanlik, yolg'onchilik, hasadgo'ylik insonni obro'sizlantiradi.*  
C) *Har bir o'g'il-qiz buva-buvisi, ota-onasining nasihatlariga doimo amal qilishi kerak.*  
D) *Mehmondo'st o'zbek xalqi hamisha millatlararo totuvlikni ulug'laydi.*

3. Tasviriy ifodalar va ularning mazmuniga mos keluvchi so'zlarni to'g'ri moslashtiring.

1 yaylov bahodiri	a sher
2 bahor elchisi	b bo'ri
3 o'rmon podshosi	c archa
4 o'rmon malikasi	d cho'pon
	e boychechak
	f tovus

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chiring.

4. Qaysi raqam bilan berilgan so'zdagi ko'p nuqta o'rnida y harfi yoziladi?

- 1) tabi...at; 2) to...ifa; 3) do...ira; 4) jami...at;  
5) o...ila; 6) shari..at

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chiring.

5. *Davlat xavfsizligi xizmatidan bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi masalalariga hozirda alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularning sog'lig'ini saqlash, uy-joy bilan taminlash, mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash kafolatlanadi.*

Ushbu parchani o'qing va undagi imloviy jihatdan xato yozilgan so'zni aniqlab, mazkur so'zning to'g'ri variantini yozing.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chiring.

6. Qaysi gapda har ikkala o'rinda **-li** qo'shimchasini qo'llash mumkin?

- A) *Yo'lning ikki tomoniga hosil... meva... daraxtlar ekilgan.*  
B) *Vazmin va chiroy... gapiradigan bu shahar... kishi ustozimiz edi.*  
C) *Bilib qo'y, reja... ish hamisha samara... bo'ladi.*  
D) *Anvar aql..., tirishqoq, juda harakat... bola.*

7. *Shuni bilki mening vujudim sening qo'lingga topshirilgan dedi o'zining oshpaziga Iskandar unga o'z joning bilan g'amxo'rlik qil.*

Ushbu parchada tushirib qoldirilgan tinish belgilarini mos ketma-ketlikda so'z bilan yozing.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chiring.

8. Gaplar va ulardagi ko'p nuqta o'rnida qo'yilishi lozim bo'lgan so'zlar mos ravishda to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

1 Kishi odobi uning o'zgalari bilan munosabatida ...adi.	a ko'r
2 Kishilarni o'zgalari nazdida xushro'y ...adigan uning qalb go'zalligidir.	b ko'rish
3 Kishilar hamisha ruhiyatida biron bir illat ...digan do'stga ehtiyoj sezadi.	c ko'rmay
	d ko'rin
	e ko'rsat
	f ko'rinmay

- A) 1-d, 2-e, 3-f B) 1-e, 2-d, 3-b C) 1-e, 2-b, 3-c  
D) 1-d, 2-a, 3-c

9. Jadvalda berilgan so'zlar yordamida so'z birikmasi hosil qilingan javobni belgilang.  
Diqqat! Hokim so'zlardan ikkitasi ortiqcha.

tobe so'z	hokim so'z
1. o'zini	a) keyin
2. o'zidan	b) uyi
3. o'z	c) tanishtirmoq
4. o'zi haqida	d) faxrlanmoq
	e) o'qituvchi
	f) ma'lumot bermoq

- A) 1-e, 2-b, 3-f, 4-b    B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c  
C) 1-f, 2-c, 3-e, 4-d    D) 1-c, 2-d, 3-b, 4-f
10. Qaysi gapda ajratilgan bo'lak mavjud?
- A) Matematika, fizika, biologiya – hammasi bola tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi.  
B) O'g'lim, yana bir bor o'ylab ko'r, balki shu sohada ishlab ko'rarsan?  
C) Afsus, biz kutgan natijaga erisha olmadik, astoydil harakat qilgan edik.  
D) Biz shu atrofdan, qishloqqa yaqin joydan, boshpana topdik.
11. Quyidagi gapda holning qaysi ma'no turi **ishtirok etmagan**?
- Bu kitobni kutubxonadan bir necha marotaba o'qigani olib keldim, ammo har safar ulgurmaganim uchun o'z vaqtida olib bora olmadim.*
- Javob: \_\_\_\_\_
- Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chiring.
12. *Yozgi ta'til boshlanmasdan men qishloqdagi buvimlarnikiga ketdim.*  
Ushbu sodda gap mazmuniga mos ravishda grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirilgan qo'shma gapni aniqlang.
- A) *Yozgi ta'til boshlandi va men qishloqdagi buvimlarnikiga ketdim.*  
B) *Yozgi ta'til boshlanmasa, men qishloqdagi buvimlarnikiga keta olmayman.*  
C) *Yozgi ta'til boshlansa, men qishloqdagi buvimlarnikiga ketaman.*  
D) *Yozgi ta'til boshlanmadi, ammo men qishloqdagi buvimlarnikiga ketdim.*
13. Qaysi qatorida boshqalari bilan ma'nodoshlik hosil qila olmaydigan so'z qatnashgan?
- A) *yonmoq, kuymoq, o'rtanmoq*  
B) *o'tinch, iltimos, iltifot*  
C) *rasvo, nobop, bo'lmag'ur*  
D) *g'avg'o, mashmasha, mojaro*

14. **Anqoning urug'i** iborasi qanday ma'no anglatadi?

Javob: \_\_\_\_\_  
**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chiring.

15. Qaysi gapda uslubiy jihatdan xato qo'llangan so'z mavjud?
- A) *Men Navoiyning ijodini aql bilan ham, qalb bilan ham to'la anglab yetganimcha yo'q.*  
B) *Jahonga mashhur Xusrav davrida shohlar tanovul qiladigan ba'zi bir taomlarni fuqarolar yeyishi man qilingan ekan.*  
C) *Kitoblarda aytilishicha, eng yaxshi odam og'zi va qo'li ochiq odamlar sanalar ekan.*  
D) *Kitob mutolaasiga berilib ketganimdan otamning kirib kelganini ham payqamay qolibman.*
16. *Shuningdek, bu davrda tosh qirg'ish va toshdan yasalgan buyumlar yasash mamlakatning xo'jalik hayoti... katta ahamiyatga ega bo'lgan. Misr toshtaroshlari, ayniqsa, binokorlik... katta yutuqlarga erishganlar, bu davrda qurilgan Misr piramidalari fikrimiz... yaqqol dalilidir. Ushbu obidalar hanuzgacha dunyo ahlini hayrat... solib kelmoqda.*  
Qaysi javobda ushbu parchadagi ko'p nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan kelishik qo'shimchalarining ketma-ketligi to'g'ri berilgan?
- A) *-da, -da, -ning, -ga*  
B) *-da, -ga, -ning, -ga*  
C) *-ga, -da, -ni, -ga*  
D) *-da, -da, -ni, -ga*
17. *Tog' sari yurganimiz sayin bahri-dilimiz ochilib, vujudimizni ko'tarinki bir kayfiyat egallab borardi, o'zimizni qush... yengil sezar edik.*  
Ushbu parchadagi ko'p nuqta o'rniga yordamchi so'zlarga oid qaysi so'zni qo'yish mumkin?
- Javob: \_\_\_\_\_
- Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chiring.
18. Qaysi raqam bilan berilgan qo'shma gapning qismlari shart mazmuniy munosabatini ifodalash uchun xizmat qilgan?
1. *Qani endi, men ham o'sha joylarga borsam, u yerdagi ajoyibotlarni o'z ko'zim bilan ko'rsam edi.*  
2. *Ko'zimda bir olov chaqnar, ostonamga sen kelsang.*  
3. *Men hamma narsani hisobga oldim, shu pul xarajatlarimizga yetib qolsa kerak.*  
4. *Siz quvonavering, bugun Nazira ham kelsa kerak.*
- Javob: \_\_\_\_\_
- Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chiring.

Matnni o'qing va ushbu matn asosida shakllantirilgan quyidagi to'rtta topshiriqni bajaring.

(1) *Birinchi kishi:* Assalomu alaykum, kechirasiz, sizning joyingiz qayerda?

(2) *Ikkinchi kishi:* Vaalaykum assalom. Mening joyim chap qatorda, oynaning yonida, sizniki-chi? Sizning joyingiz qayerda?

(3) *Birinchi kishi:* Marhamat, joyingizga o'tiring, joyim sizning yoningizda ekan. Qanday yaxshi, siz bilan yonma-yon o'tirar ekanman. Juda soz!

(4) *Ikkinchi kishi:* Rahmat, men ham siz bilan ketayotganimdan mamnunman!

(5) *Birinchi kishi:* Mening ismim – Anvar.

(6) *Ikkinchi kishi:* Tanishganimdan xursandman. Men Sobirjonman. Donishmandlar: "Odam bolasining orzu va murodga erishmog'i faqat xushmuomalalik **soyasida** hosil bo'ladi", – deyishgan. Siz juda xushmuomala inson ekansiz.

(7) *Birinchi kishi:* Luqmoni Hakim qo'shnilarini izzat va hurmat qilmaydigan, ularning dilini og'ritadigan odamdan hamma nafratlanishini, u odam o'z obro'sini yo'qotishini aytadi.

(8) *Ikkinchi kishi:* Ha, **ular to'g'ri aytganlar**. Aeroport yanada qulay. Uzoq safarga chiqqanda samolyot qulay-da, baribir.

(9) *Birinchi kishi:* **E, nimasini aytasiz**, yo'lovchilar uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bugungi kunda O'zbekiston havo yo'llari kemalari to'rtta qit'aning 50 dan ziyod aeroportiga parvoz qilmoqda.

(10) *Ikkinchi kishi:* To'g'ri aytasiz. Safarimiz bexatar bo'lsin. Oq yo'l, yaxshi yetib olaylik.

19. Matndagi suhbatdoshlar haqida berilgan to'g'ri fikrni aniqlang.

A) Samolyotda ikki hamkasb tasodifan uchrashib qoldi.

B) Aeroport xodimlari faoliyatlari xususida gaplashdilar.

C) Qadrdon do'stlar hikmatlar haqida suhbatlashdilar.

D) Ikki yo'lovchi safarda hamroh bo'lib qoldilar.

20. Matnning (6) raqami bilan belgilab ko'rsatilgan qismidagi **soyasida** so'zini qaysi javobda berilgan so'z bilan almashtirib qo'llash mumkin?

A) xususida B) orqasiga C) ko'lankasida

D) tufayli

21. Matnning (8) raqami bilan belgilab ko'rsatilgan qismidagi **"ular to'g'ri aytganlar"** jumlasining mazmuni qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

A) Sobirjon Anvarjonning safarga chiqqanda qulay transport vositasida ketish yaxshi ekanligi haqidagi fikrlarini ma'qulladi.

B) Sobirjon donishmand kishining xushmuomala bo'lmagan insonlar o'zlariga ham ziyon qilishi haqidagi fikrini ma'qulladi.

C) Sobirjon boshqa yo'lovchilarning aeroportning qulayligi, samolyotning yaxshiligi haqidagi fikrlarini tasdiqladi.

D) Anvar donishmandlarning safarga chiqqanda yaxshi yo'ldosh va qulay sharoit bo'lishi kerakligi haqidagi fikrlarini dalil sifatida keltirdi.

22. Matnning (9) raqami bilan belgilab ko'rsatilgan qismidagi **"E, nimasini aytasiz"** kiritmasi qanday mazmun-munosabatni ifodalagan?

A) afsuslanish, inkor qilish

B) xulosalash, ranjish

C) mamnunlik, tasdiqlash

D) ajablanish, hayratlanish

Abdulla Oripovning "Tilla baliqcha" she'ri o'qing va quyidagi to'rtta topshiriqni bajaring.

- (1) Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni  
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.  
(2) Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni,  
Xor-u xas, **xazon**lar ustin yopdilar.

- (3) Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha  
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.  
(4) Menga alam qilar, tilla baliqcha  
Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni!

23. She'rning umumiy mazmuni haqida berilgan to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) *Inson va hayot haqidagi o'ylar bayon qilingan.*  
B) *Tabiat go'zalliklari tarannum etilgan.*  
C) *Ishq va muhabbat haqida kuylangan.*  
D) *Ona Vatanga bo'lgan muhabbat kuylangan.*

24. She'rning (2) raqami bilan ko'rsatilgan qismidagi **xazon** so'zi bilan ma'nodosh bo'la oladigan so'zni yozing.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chiring.

25. Tilla baliqcha obraziga mos ta'rifni aniqlang.

- A) *turmush tarzidan rozi bo'lib yashayotgan, aslida bundan ham yaxshi hayotga munosib bo'lgan insonlarni*  
B) *do'stlari tomonidan xiyonatga uchragan iste'dod egalarini*  
C) *yovuz kimsalardan zulm ko'rib halok bo'lgan qahramonlarni*  
D) *boy-badavlat bo'lsa-da, o'zini bechorahol tutadigan kimsalarni*

26. She'rning (4) raqami bilan ko'rsatilgan misralari mazmuni haqidagi to'g'ri izohni aniqlang.

- A) *Shoir insonlarni hamisha yuksaklikka intilib yashashga, taraqqiy etishga undaydi.*  
B) *Shoir dunyoning asli bir ko'lmak hovuz ekanligini hamda unga intilib yashash lozimligini uqtiradi.*  
C) *Shoir dunyoning o'zi bir ko'lmak ekanligini ta'kidlar ekan, taqdirning izmiga bo'ysunib yashashga chaqiradi.*  
D) *Shoir barcha tilla baliqchalar aslida ko'lmak hovuzchalarda yashashini aytadi.*

Matni o'qing va ushbu matn asosida shakllantirilgan quyidagi to'rtta topshiriqni bajaring.

SHER BILAN DURROJ

(hikoyatning qisqartirilgan nasriy bayoni)

(1) To'qayda bir yirtqich sher bor edi. U har safar bolalaganda xursand bo'lar, biroq chumolilar uning bolasini talab o'ldirishardi. Shuning uchun u farzandini og'zida tishlab asrar edi. O'sha to'qayda bir durroj\* ham bo'lib, bu yirtqich sherning vahmidan doim qo'rquvda edi. Bolasini og'zida tishlab olib yuradigan sher durroj pisib yotgan bo'talar\* yoniga borib qolsa, bu pir etib uchar, sher qo'rqqanidan seskanib ketar, bolasiga ham tishi botib ketardi. Natijada sher tishi bilan o'z bolasini yarador qilardi.

(2) Sher durroj bilan do'stlashish yo'lini qidira boshladi. U durrojga dushmanlaridan himoya qilish va sadoqatli bo'lishni va'da qilib, u bilan do'stlashdi. Bir kuni durroj: "Dod, meni ovchi tuzog'iga tushirdi", – deb qichqirdi. Sher kelib ko'rsaki, durroj ovchining tuzog'iga tushmagan ekan. Sher juda ranjidi. Bu hol bir necha bor takrorlandi.

(3) Bir kuni durroj ovchining tuzog'iga tushib qoldi. U dod solib sherni yordamga chaqirdi, ammo qancha qichqirmasin, sher qutqarish uchun iltifot ko'rsatmadi. Durroj esa halok bo'ldi.

*durroj\** – qirg'ovul, kabutar  
*bo'ta\** – daraxt

27. Hikoyatning (1) raqami bilan belgilab ko'rsatilgan qismida sher bolalari kim (nima) sababdan halok bo'lishi bayon qilingan?

- A) chumolilar sababli    B) durroj sababli  
C) yirtqich qushlar sababli    D) bo'talar sababli

28. Sherning durroj bilan do'stlashishi sababi qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A) kuch va qudratda tengsiz durrojdan qo'rqqanligi uchun  
B) bolalarini talab o'ldirayotgan chumolilardan qasd olish uchun  
C) bolalarini tarbiyalashda durrojning nasihatlariga ehtiyoji borligi uchun  
D) og'zida olib yurgan bolalariga ziyon yetkazib qo'ymaslik uchun

29. Hikoyatning (2) raqami bilan belgilab ko'rsatilgan qismida sherning nimadan ranjiganligi aytilgan?

- A) durrojning tuzoqqa tushib qolganidan  
B) do'stiga ovchi xavf solganidan  
C) durroj tuzoqqa tushmaganidan  
D) durrojning yolg'onchiligidan

30. Durroj obraziga to'g'ri ta'rif berilgan javobni aniqlang.

- A) sadoqatli va mard    B) hiylakor va aqlli  
C) ishonuvchan va sodda  
D) qo'rqoq va yolg'onchi